

Fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish tizimini hamda chaqruvgacha yoshlar va harbiy xizmatchilarning tarbiyaviy, ahloqiy-ruhiy va ma'naviy-tarbiyaviy tayyorgarligini tashkillashtirish Komissiyasi raisi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi direktori M.Xolmuxamedovning so'zi

Assalomu alaykum, hurmatli yig'ilish qatnashchilari.

Bugun biz o'z oldimizga barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalash vazifasini qo'yganmiz.

O'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirayotgan barcha barcha islohotlar yosh avlodni ona vatanini, mustaqilligini, xalqini, ota-onasini himoya qila olishga qodir bo'lgan, tom ma'noda yurtning haqiqiy himoyachisi bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilishi lozim.

Buning uchun birinchi navbatda, yoshlarimizga **mardlik va jasurlik, matonat va dovyuraklik, ezgulik va oliyjanoblik, vazminlik va qat'iyatlilik, saxovat va mehr-muruvvat, vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, mustahkam e'tiqod va bukilmas iroda, chuqur bilim va tafakkurga** ega bo'lishdek yuksak fazilatlarni singdira olishimiz kerak.

Albatta, xalqimizning ajdodlarimizning bugungi yosh avlodga ibrat bo'ladigan darajada buyuk tarixi, o'tmishi bor.

Shiroq, To'maris, Muqanna, Mahmud Tarobiy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amur Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari vatanini sevgan, yurtning ozodligi uchun kurashgan, harbiy san'at bobida ibrat bo'la oladigan buyuk ajdodlarimizning jasorati, matonati, vatanparvarligi haqida barchamiz yaxshi bilamiz.

Lekin ularning orasida sohibqiron bobomiz Amir Temur hazratlarining ulug'vor siymosi yoshlarimizga haqiqiy ibrat namunasi sifatida alohida ajralib turadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu haqda yaqinda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining qurultoyida Muhtaram Prezidentimiz ham alohida urg'u berib, kursantlar tayyorlaydigan harbiy bilim yurtlariga "**Temurbeklar maktabi**", deb nom berish haqida taklif bildirdilar.

Muhtaram Yurtboshimizning bu takliflari zamirida bugungi va kelajak avlodlarga Amir Temur hazratlarining harbiy, ma'naviy merosini yetkazish, eng muhimi, o'zbek askarlarini ana shu ajdodlarimizning o'lmas jangavorlik, jasorat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulug'vor maqsad bor.

Shuning uchun bugun mustaqil O'zbekistonning qurolli kuchlarida xizmat qiladigan o'zbek askari qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, degan savol hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi.

Zamonaviy askarning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, bilimi, jangovar kayfiyati, agar ta'bir joiz bo'lsa, xuddi Amur Temur lashkari, navkarlari, sarkardalarining jo'mardligi, vatani uchun jonini fido qilishga tayyorligi kabi yurtiga, yurtboshisiga sadoqatida namoyon bo'lishi kerak, deb bilaman.

Qolaversa, Amir Temur shaxsida biz yuqorida tilga olingan xislat va fazilatlarning barchasi mujassam, u kishi aynan shu fazilatlari bilan buyuklik maqomiga ko'tarilgan.

Tarixiy manbalarda **“Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan”**ligi alohida ta'kidlanadi.

Manbalarda sohibqiron Amir Temur - yorqin xislatlarga ega ekanligi, **xotirasi o'tkir, shijoatli va qatiyatli, birso'zli, zo'r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson** sifatida ta'riflanadi.

Umuman, yoshlarimiz tarbiyasida Amir Temur shaxsi va uning ko'plab g'oyalari hozirda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Qobiliyatli yosh harbiy xizmatchining oldiga qo'yilayotgan vazifa – zamonaviy harbiy fan va harbiy ish amaliyotini rivojlantirish yo'lida kuch-g'ayratni ayamalik ham aynan shundan kelib chiqadi.

Sohibqironning harbiy merosini o'rganish ana shu vazifaning tarkibiy qismidir.

Shuning uchun harbiy bilim yurtlarimizning Amir Temur nomi bilan bog'lanishida juda katta mazmun va mohiyat mujassam.

Amir Temur – milliy iftixorimiz. Jahon va harbiy san'at tarixida uning nomi va amalga oshirgan ishlari alohida o'rin egallaydi. Sohibqironning biz – avlodlarga qoldirgan muhim harbiy o'git va ko'rsatmalarini hamda ularning zamonaviy harbiy qurilish bilan aloqasini yoshlarga albatta o'rgatishimiz kerak.

Yoshlarimizga Amir Temurning mardligi, tashkilotchilik qobiliyati va strategik tafakkuri, uning ko'p sonli g'alabalarining asl sabablarini anglab yetishiga ko'mak berishimiz kerak.

Amir Temur davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning **«...davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim»**, degan so'zlari buning yorqin dalilidir.

Qolaversa, Muhtaram Yurtboshimizning takliflari bilan bugun turli soha va tarmoqlarda katta natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun “Mard o'g'lonlar” degan nom bilan Davlat mukofotini ta'sis etilishi rafasida turibmiz.

Bularning barchasi yoshlarmizda burchga, ona-vatanga sadoqat bilan xizmat qilish eng oliy maqsad ekanini anglab yetishlariga xizmat qiladi.

QO'SHIMChA MA'LUMOT:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 yanvardagi “O'zbekiston Qurolli kuchlarini yanadarivojlantirish va isloh qilish masalalarini amalga oshirish bo'yicha choralar to'g'risida”gi **PQ-2738- sonli** qarori ijrosini ta'minlash maqsadida:

Joriy yilda **29 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kelajkdaharbiy bilim yurtlariga o'qishga kirishga tayyorlaydigna maxsus ugurhlar tashkil etilmoqda.** (Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 apreldagi 227-sonli qarori.)

O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda **o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish maqsadida bir qator ko'rik-tanlovlar, ommaviy-harbiy sport musobaqalar o'tkazib kelinmoqda.**

Asosiy maqsad - o'quvchi-yoshlarini Qurolli Kuchlar saflarida harbiy xizmatga va oliy harbiy bilim yurtlariga kirishga tayyorlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, o'zaro madaniy-sport aloqalarini yo'lga qo'yish, yoshlarni sport musobaqalariga ommaviy tarzda jalb qilishdan iborat.

Jumladan, o'quvchi-yoshlar o'rtasida **“Shunkorlar” harbiy-sport musobaqalari**; **“Yosh chegarachilar”** harbiy vatanparvarlik musobaqasi; **“Amir Temur avlodlari”** harbiy sport musobaqalari; **“Yosh qutqaruchi” musobaqalarining** Respublika final bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi.

Hozirgi kunda Mudofaa vazirligi bilan birgalikda Respublikada faoliyat yuritayotgan harbiy akademik litseylarda o'quv-tarbiyaviy jarayonni sifatini oshirish, ularning ilg'or tajribalarini keng yoritish maqsadida 2018 yildan boshlab **“Eng ilg'or harbiy akademik litsey”** tanlovini o'tkazish yuzasidan Qo'shma qaror va Nizom loyihasi tayyorlandi. Shuningdek, harbiy akademik litseylar o'quvchi-yoshlari o'rtasida an'anaviy o'tkazilib kelinayotgan **“Amir Temur avlodlari”** harbiy sport musobaqalarini yanada takomillashtirish maqsadida musobaqa Nizomi qayta ko'rib chiqilmoqda.